«OILA – TALABA – OLIY TA'LIM MUASSASASI – IJTIMOIY PEDAGOGIK HAMKORLIK UCHBURCHAGI: muammo va yechimlar

M.Quronov, IMTI direktor o'rinbosari
pedagogika fanlari doktori, professor
D.Q. Malikova, Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: ushbu tezisda milliy tarbiyaning dolzarb muammolari, ularni hal etishda olib boriladigan ijtimoiy pedagogik hakorlik ishlari, bola tarbiyasida oila, ota-onalarning ijtimoiy burch va majburiyatlari, uning samaradorligini oshirish vosita va metodlari nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ijtimoiy pedagogik hamkorlik, oila, ota-onaning burch va majburiyatlari, nazariy tushuncha, amaliy xulq va odatlar, hafsala, bilim va vaqt, hayot tarbiyasi, internetfobiya.

Аннотация: в этих тезисах раскрываются актуалные вопросы проблемы национального воспитания, организационные формы социально-педагогического сотрудничество в решении этих задач, ответственность и объязанности родителей перед обществом в воспитании детей, теоритечески и практически обоснованы средство и методы дастижения этой цели.

Ключевые слова: воспитание, социально-педагогическое сотрудни-чество, ответственность и объязанность родителей в воспитании детей, понимание, поведения и привички, желание, знание и время, жизненное воспитание, интернетфобия, средства и методы воспитания.

Abstract: these theses reveal current issues of the problem of national education, organizational forms of social and pedagogical cooperation in solving these problems, responsibility and obligations of parents to society in raising children, and theoretically and practically substantiate the means and methods of achieving this goal.

Key words: education, social and pedagogical cooperation, responsibility and duties of parents in raising children, understanding, behavior and habits, desire, knowledge and time, life education, Internet phobia, means and methods of education.

XXI asr – intellektual asr. Bilimsizlik – salomatlikka tahdidlardan biri sifatida Jahon sog'liqni saqlash standartiga kiritilgan. Bundan chiqadi-ki, ota-onalarning va bolalarining kasal bo'lishlariga asosiy sabablaridan biri ota-onalarda tibbiy bilimlarning yetishmasligi ekan. Demak, qaysi ota-ona o'zim sog' bo'lay, bolalarim sog' bo'lishsin, desa, tibbiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Kim boy bo'lay, desa, iqtisodiy bilimlarga, xususiy mulkining mustahkam himoyasini o'ylasa, huquqiy bilimlarga ega bo'lishi kerak bo'lib chiqadi.

Bugun – Ertaga uchrashuv‖, deb hayajonlanayotgan yigitlarimiz, titrab turgan qizlarimiz, xiyobonlarda qo'l ushlashib yurgan sevishgan yigit-qizlar – bo'lajak kelin-kuyovlar – bo'lajak er-xotinlar – bo'lajak ota-onalar. Chunki to'ng'ich bolasi tug'ilgan kundan boshlab kechagi kelin-kuyov, bir kunda ota-onaga aylanishadi. Shunday ekan, ota-onalikka tarbiya sirlarini bilib kirishgan yaxshimi, yoki bilmay? Albatta bilib kirishish kerak, deysiz. Chunki hozirgi murakkab va tahlikali zamonda bu – hal qiluvchi masala bo'lib qoldi-ku, deysiz. Shunday ekan, har bir kelin-kuyov iftixor bilan: - birinchi farzandim tug'ilgan kun – mening birinchi pedagogik ish kunim deyishga tayyor turishlari kerak. Nafaqat. Chunki bu har

birimizning konstitutsion burchimiz. Zero O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlarigaqadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar, degan majburiyatimiz mustahkamlab qo‘yilgan.

Bundan tashqari farzandining tarbiyasi bilan qiziqmagan, yetarlicha g‘amxo‘rlik ko‘rsatmagan ota-onalar O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining 47-moddasi bilan ayblanadilar. Biroq, tarbiyaviy majburiyatni ta’minlashda ota-onalarimiz muammoga duch kelmoqdalar. Ya’ni pullari ko‘p, biroq, bolani qanday tarbiyalash kerak, degan savollarga javoblari – kam. Ularda pedagogik kompetentlilik – bilim, ko‘nikma, malaka, xohish yetishmayotgani sezilmoqda.

Tarbiyaning ta’riflari ko‘p. Har birining o‘z o‘rni bor. Bir narsa aniq-ki, tarbiya xuddi biznes, meditsina, quruvchilik kabi aniq natijaga qaratilgan, amaliy ish.

Ba’zilar tarbiya haqida – talabani yoniga o‘tqazib, ibratli nasihatlar qilish, deyishadi. Bu ham foydali. Bemorga sog‘liqni saqlash yo‘llarini yaxshilab tushuntirishni anglatadi. Tushuntirish nazariy tushuncha beradi. Tarbiya ana shu nazariy tushunchalarga asoslangan fazilatlarni yaratadi. Bolada biror fazilatni ko‘rishni istasak, dastlab unga bu fazilatni yotig‘i bilan tushuntiramiz. Undan so‘ng shu fazilatning eng mukammal tarzini ko‘rsatib, o‘rgatib, mashq qildirib, takrorlatib, odatga aylantirib yuborish kerak bo‘ladi. Demak, tarbiya odamlarning fazilatlarini va fazilatlar majmui – xulqini yaratadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, hazrat Alisher Navoiy bobomiz Aql ila olam yuzin obod qil, Xulq ila odam elini shod qil, degan. Bu satrlarda Respublikamizning birinchi Prezidenti “Yuksak ma’naviyatyengilmas kuch” kitoblaridagi sharqona hikmatni – ta’lim va tarbiya uyg‘unligini yana bir bor anglaymiz. [1]

Hafsala, bilim va vaqt. Blis-test. Savol: ―Hurmali ota-onalar. Aytingchi, siz so‘nggi bir oy ichida, ataylab, oldindan tayyorgarlik ko‘rib, bolangizga biror fazilatni o‘rgatganmisiz? O‘rgatgan bo‘lsangiz, bu ishga bir kunda o‘rtacha necha minut vaqt ajratgansiz? Quyidagi raqamlardan qaysi biri javobingizga mos bo‘lsa, aylana ichiga oling. 1 3 5 10 15 20 25 30 35 40 50 55 60 65 70 75 80 85 90 95 100‖

Aytaylik, siz (15) deb belgiladingiz. Bu nimani anglatadi? Bir sutkada sizga 1440 minut vaqt budjeti berilgan. Siz shundan 8 soatini uyquga sarflayapsiz. Qolgan 16 soatdan 15 minutini ataylab bolangiz bilan suhbatlashishga – bola tarbiyasiga xarajat qildingiz. Bu bir kunlik faol vaqt budjetingizning 0,015% ini tashkil qiladi. Qolgan 945 minutini, yoki 99,99%ini boshqa ishlarga sarflabsiz. Agar har kuni bolangizga 15 minut vaqt ajratayotgan bo‘lsangiz...Bu raqam sizning eng aziz ne’mat – farzandingiz kelajagiga ajratayotgan e’tibor, quntingiz qanchaligini ko‘rsatadi. Bu raqam 40 yildan so‘ng bolangiz Sizga qancha vaqt ajratishidan darak bo‘lishi mumkin. Tarbiya – uzluksiz jarayon. U bola ertalab uyg‘onganidan to uxlagunga qadar to‘xtamaydi, davom etadi. Chunki bola har minutda nimalarnidir, kimlarnidir ko‘rayapti.

Tarbiyaning ikki ravishi bor. Biri – oliy ta’lim muassasasi, ikkinchi ravishi bu rejalashtirilmagan, hayot tarbiyasi. Buni talabaning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy tajriba, qadriyatlar interiorizatsiyasi jarayoni, desa ham bo‘ladi. Masalan, talaba uydan

institutga 30 minutlik yo‘l bosib boradi. Qaytishda ham shunday. Demak, u har kuni 60 minut davomida u notanish odamlarni, vaziyat va manzaralarni ko‘radi. Har xil yaxshi-yomon voqealar, fikrlar, gaplar, namunalar ta’siriga duch keladi. Qaytishida ham. Ertaga ertalab o‘qishga kelayotib talaba kimlarni, nimalarni ko‘rishini hech qaysimiz bilmaymiz. Demak, har kuni talabani 60 minutlik tashkil etilmagan tarbiya (interiorizatsiya) jarayoni kutib turadi. [2]

Talabalar hayotda, ijtimoiy tarmoqlarda turli yoshdagi odamlarning qanday kiyinganliklarini, bir-birlariga muomalalarini, to‘g‘ri-noto‘g‘ri qiliqlarini ko‘radi. Qayd qiladi. Shuning uchun biz kattalar ko‘cha-ko‘yda, to‘y ma’rakada, transportda ketayotganimizda ana shu nozik jarayonni doim his qilib turishimiz kerak. Yoshlar mendan ibrat olishayapti. Men hozir menga ko‘zi tushayotgan barcha – mahalla, qishloq, ko‘chadagi barcha yoshlarga ibrat bo‘layapman, degan mas’uliyat doim yodimizda turishi kerak.

Xatti-harakat – harakatlar liniyasi, chizig‘i, degan ma’noni ham bildiradi. Barcha harakatlar liniyasining manzarasi xulqni tashkil etadi. Bir kunlik xulq (harakatlar chizig‘i) qanday ijobiy yoki salbiy natijalar berganligiga qarab baholanadi. Har bir otaning qo‘l telefoni bor. Tyutorlar qo‘ng‘iroq qilib, ota-onalarni xushmuomala bilan, talaba tarbiyasida hamkorlikka chorlash kerak. Telegram orqali ularga farzand tarbiyasi haqidagi aforizmlar, uning o‘g‘li-qizi haqida qiziq, yaxshi ma’lumotlar, yangiliklar, muammolarni yuborib tursa bo‘ladi.

Aksariyat otalar birdaniga ochib o‘qib, ta’sirlanib, qiziqib ketadi. Qolgan 10-15% otalarni – faollashtirib olish uchun biroz ko‘proq vaqt talab etilar. Ularga onalar orqali – bilvosita ta’sirni yanada kuchaytirish kerak. Kerak bo‘lsa, ma’rifiy usullar ish bermasa, yuqorida aytganimiz -huquqiy-me’yoriy asoslarni ishga solsa bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasasida ota-onalar majlislariga asosan onalar kelishadi. Bu bejiz emas. Otalarning maktabga kam kelishi albatta yomon. Lekin onalarning ko‘p kelishlari ham juda ajoyib imkoniyat. Chunki onalarda tarbiya ishi uchun zarur bo‘lgan juda ko‘p afzalliklar bor.

Tarbiya uchun kim jonkuyar? Onalar. Kim e’tiborliroq? Onalar. Bola tarbiyasi uchun otaning vaqti kam bo‘lsa, onaning vaqti ham, imkoniyati ham ko‘p. Demak, onalarni pedagogik bilim va mahorat bilan qurollantirish kerak. Chunki onalar orqali oilalarga pedagogik bilimlarni olib kirish, joriy qilish tez va soz kechadi. Onalar, kerak bo‘lsa, otalarni ham ishga solib yuborishadi. Bundan mahalla – oila – ta’lim muassasasining pedagogik hamkorligi samarasi yanada oshadi. Talabalarni turli salbiy ta’sirlardan himoya qilish maqsadida ijtimoiy hamkorlikda o‘tkazayotgan profilaktik tadbirlarga zarurat qolmaydi.

Bolangizda qanday xulqni ko‘rishni istasangiz, avval unga o‘zingiz qilib ko‘rsating. O‘spirin ham sizga bir necha marta takrorlab ko‘rsatsin. 21 marta takrorlansa, o‘sha fazilat talabaning odatiga aylanadi. Ya’ni har doim tirigger ishga tushganida namoyon bo‘ladi. Tirnoq olishni, salomlashishni, qovun so‘yishni, hurmat ko‘rsatishni, internetdan foydalanishni, to‘y-ma’rakada xizmat qilishni, odam savdosi, diniy radikaldan o‘zini himoya qilishni bolaga ―yuz marta aytgandan ko‘ra 21 marta –mana bunday qilgin, xo‘pmi‖, deb bajarib, qilib ko‘rsatib, o‘rgatish kerak. Bir marta ko‘rsatishdan eringan ota-ona yuz marta aytib, eslatib, o‘zlarining ham, bolasining ham kayfiyatini buzib yurishlariga to‘g‘ri keladi. [3]

Bugun internetning ta’siri yoshlarga oila, OTM va mahalla ko‘rsatayotgan tarbiyaviy ta’sirdan kam emas. Bu esa ayrimlarda internetfobiyani paydo qilmoqda. Ular “bolalarimizni internetdan himoya qilishimiz kerak. Internet bolalarimizni buzayapti”, deyishadi. Aslida esa – “biz o‘zimiz internetdan qanday foydalanishni o‘rganmadik. Bolalarimizga o‘rgatmadik. Qanday nazorat qilishni bilmayapmiz. Shuning uchun biz berayotgan puldan bolalarimizga foyda o‘rniga zarar yetayapti”, deyilsa, to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki internetdagi yaxshi resurslarni qo‘yib, yomonlaridan foydalansa, shunday bo‘ladi-da.

Asosiy sabab – pedagogik loqaydlik. Ya’ni tarbiyaga e’tiborsizlik. Bola shamollasa, yelib-yugurib vrach maslahati, retsepti, dori-darmonlarini topib, davolaymiz. Biroq, xulq, ma’naviy kasallikni ko‘rsak ham yelib-yugurib, pedagog maslahati, tavsiyalari, metodlarini topib, davolashga shoshilmaymiz. O‘smir bolamiz bir ishkal chiqargandan so‘ng u bilan ―gaplashib qo‘yamiz‖. Qaytib bunday qilmaslikni a y t a m i z .

Lekin sokin, erkin, dam olish paytlarida o‘spirin bilan gaplashib o‘tirmaymiz. Qanday vaziyatda o‘zini qanday tutishni **tushuntirmaymiz** va **o‘rgatmaymiz, ko‘rsatmaymiz.** Toqatimiz yetmaydi. ― Katta bo‘lganingda bilib olarsan‖, deb qo‘yamiz. [4]

Tushuntirib, ko‘rsatib-o‘rgatish uchun ketadigan atiga 10 minut vaqt yetadi. Lekin biz bundan erinib, o‘smir bolamizga emas, televizorga qaraymiz. Vaholanki, mana shu 10 minut bolamizga juda-juda kerak edi.

Natijada u hayotda qayta-qayta xatolarga yo‘l qo‘yadi, qancha dakkilarni eshitadi. Tarbiyani o‘z otasidan emas, boshqalardan olishga majbur bo‘ladi.

Bundan 100-50 yil oldin o‘smirlar har kuni 8-00dan 20-00gacha – 12 soat davomida ota-onasini, qo‘shnilarini, qarindoshlarini ko‘rishgan. Ularning gaplarini eshitgan, ularga taqlid qilgan. Ularga o‘xshab ketgan. Bugungi esa ular real do‘stlaridan ko‘ra ―virtual do‘stlarini‖ ko‘proq ko‘rishayotir. Virtual do‘stlar doim jilmayib turib, ―Biz sizni sevamiz. Evaziga ozgina ― qurug‘idan tashlab tursang bas, deb o‘ziga chorlaydi. Bolalar o‘shalarning grifing iboralarini eshitib, qiliqlarini ko‘rishayotir. Qo‘llaridagi android telefonlar qayta-qayta ajnabiy xulq namunalarini taklif qilayotir. Bularning barchasi milliy tarbiya borasida hafsala, quntimizni oshirishimizni taqozo qilayotir.

15 yoshli bola otasi bilan 5475 kun birga yashagan bo‘ladi. U otasining qanday vaziyatlarda nima qilishini, qaysi so‘zni qanday aytishini takror-takror ko‘radi, eshitadi. U har kuni 2 marta ko‘rsa ham 10950 marta ko‘rgan bo‘ladi. U boshqalarni ham turli vaziyatlarda qanday xatti-harakat qilishganini ko‘rgan. Lekin, ota-onasi singari minglab marta emas-da. Shuning uchun ham go‘dak bolangiz o‘ziga-o‘zi gapirib, harakatlar qilayotganida Sizga o‘xshashga mashq qilayotgan bo‘ladi. Diqqat bilan kuzatsangiz, bolangizdagi o‘zingizga yoki ayolingizga xos xatti-harakatlarni -tanib‖ olasiz. Chunki quloq doimo -Nima uchun‖, desa, ko‘z:-Qanday qilib?‖, deydi. Boshqacha qilib aytganda quloq - Ayt‖, deydi, ko‘z esa -Ko‘rsat‖, deydi. Afsuski, bu savollarga ba’zan salbiy namunalarni ham ko‘rsatamiz. Bunga sabab – o‘zimizdagi ayrim nuqsonlarda. Misol uchun ota bo‘lib, bolamizning ko‘z oldida chekamiz. Qo‘shni bir narsani so‘rab kelsa, bor narsani yo‘q, deb aytinglar, deymiz. Bir kishini oldida maqtab, ortidan yomonlaymiz.

Bunday bo‘lmasligi kerak. Ota-ona bolasidan qanday xulqni istashsa, o‘zlari shu xulqni ko‘rsatib turishlari kerak. Qancha qiyin bo‘lsa ham...

Buning ajoyib bir misolini 2015 yil 26 aprel kuni mashhur jahon chempionlari Islom va Javohir Sindorovlarning bobosi – yuridik fanlar doktori, professor Komiljon Sindorovdan eshitdim.

-Men ilgari bu narsaga e’tibor bermas ekanman. Nevaralarimni mashinaga o‘tqazib, mashg‘ulotlarga olib yurganimda uch oylar chamasi - Bozurgoni ashulasini qo‘yib, borib kelar edim. Keyin nima bo‘ldi-yu, o‘sha disk yo‘qolib qoldi. Radiokanalidan boshqa qo‘shiqlarni qo‘yib yurdim. Bir kuni mashg‘ulotdan qaytayotsak, Islomjon – Bobo, nega manga ko‘rguzubni qo‘ymayapsiz? O‘sha yaxshi-ku. O‘shani qo‘ying, dedi. Hayron qoldim. Beixtiyor ―Nima eksang, shuni o‘rasan, degan hikmatni esladim.

Bolaning qulog‘iga, ko‘ziga nimani singdirib borsangiz, o‘sha narsaga ehtiyoj paydo bo‘lib, o‘sib borarkan. Ma’naviy ehtiyoj ekan bu. 9 yoshli bolada mumtoz, og‘ir qo‘shiqqa ehtiyoj qanday paydo bo‘lganini o‘z hayotimda ko‘rdim. Men o‘zim mumtoz qo‘shiqlarimizga ishqibozman. Demak, bu bilan nabiramda-mumtoz qo‘shiqqa ehtiyojni shakllantirgan ekanman. Buni menga nabiram Islomjonning qalbidagi o‘zbek mumtoz qo‘shig‘iga ma’naviy ehtiyoj yaqqol ko‘rsatdi. [5]

Hozir o‘zbek mumtoz va an’anaviy qo‘shiqlarini eshittirib, oshno qilib borayapman. Zimdan kuzataman. Ular mumtoz qo‘shiqlarimizni hayrat bilan tinglab borishayotir. O‘zimning qiziqishim yanada ortib ketdi, dedi.

Internet, sun’iy intellekt – umuminsoniy trendda. Shunday bo‘lib qoladi. Internet – bozor. Uni tanqid qilish – befoyda ish. Undan ko‘ra bolamizga bu bozordan nimani, qanday olishni o‘rgataylik. Avval o‘zimizni, keyin talaba yoshlarimizni mediamadaniyat bilan qurollantiraylik. Ana shunda internet bizni emas, biz internetni yutamiz. Kam pul sarflab, internetdan katta-katta foyda olib, mamnun yashaymiz. Ko‘pchilik ota-onalar buni allaqachon o‘rganib olishgan. Bir tomonda internet, ikkinchi tomonda oila, yana bir tomonda OTM turibdi. Kim talabaning ko‘zlariga ko‘proq ko‘rinsa, qiziqarliroq narsalarni taklif qilsa, uning o‘y-xayollarini egallasa, u o‘shaniki! Demak internet muammosi bu – yoshlarning emas, kattalarning mediamadaniyati pastligi, pedagogik loqaydligining oqibati. Biz esa yoshlarni, internetni tanqid qilamiz. Bundan ko‘ra yoshlarimizdagi internetga “maqsadsiz-natijasiz” qiziqishni - “maqsadli-natijali” qiziqishga aylantirishimiz zarur!

Yoshlarimiz xulqi - oyina. Bu bizning pedagogik kompetentliligimizni ko‘rsatib turadi. Shuning uchun oyinadan uyaltiradigan, odamni ranjitadigan narsalarni ko‘rsak yoshlarimizdan ranjimaylik. Chunki sabab – bizda. Ular – bizning mahsulimiz. Shunday ekan, yoshlar xulqidagi kamchiliklarning sabablarini bilish xuddi yutuqlarning sababini bilishday foydali.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi (Tuzuvchilar: K.Xoshimov, S.Ochil). – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 464 b.
2. Mavlonova R. “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 2004 y
3. O‘zbek pedagogikasi tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – 272 b.
4. Quronov M. Milliy tarbiya. –Toshkent, “Ma’naviyat”, 2007. 257 b.